

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
YOSH VOLEYBOLCHILARNI TAYYORLASHDA XARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI

Ismoilov Turabjon
NamDU professori
Uraimov Jaxongir
NamDU magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18973370>

Annotatsiya: ushbu maqolada yosh voleybolchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishda va ularni har tamonlama etuk qilib tarbiyalashda xarakterli o‘yinlarning ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlar, sport, salomatlik, sog‘lom, yosh avlod, har tamonlama etuk, ruhan tetik, xarakterli o‘yinlar, jamoali o‘yinlar, kombinatsiyali o‘yin, voleybol, yosh voleybolchilarni tayyorlash, to‘p kiritish, qabul qilish, uzatish, zarba berish, to‘siq qo‘yish.

Mamlakatimizning ertangi kuni va kelajagi uning gullab-yashnashi hamda rivojlanishi asosan o‘ziga kelayotgan yosh avlodning sog‘lom, har tamonlama etuk va barkamol insonlar bo‘lib voyaga etishiga bevosita bog‘liqdir. Bu esa Vatanimiz kelajagi bo‘lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy, ruhiy va ma‘naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo qiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda jismoniy tarbiya va sportga oid bo‘lgan bir qator qonun, farmon hamda qarorlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib xisoblanadi[1;2;3;4].

Zamonaviy voleybolda barcha o‘yin usullarining samaradorligi jismoniy sifatlariga bog‘liqdir. Agar voleybolchida to‘p kiritish, qabul qilish va uzatish, zarba berish va to‘siq qo‘yish usullarining texnikasi hamda ularni ijro etish taktikasi yuksak mahorat darajada bo‘lsa, ammo tezkorlik darajasi sust bo‘lsa, unda mazkur o‘yin vaziyati raqib foydasiga hal bo‘lishi muqarrar.

Yosh voleybolchilarni tayyorlash bir necha yil davom etadigan pedagogik jarayondir. Ushbu pedagogik jarayon davomida yosh voleybolchilarni tayyorlashda ularni pedagogik xususiyatlarini xisobga olish muhim ahamiyatga egadir.

Xozirgi kunga kelib yosh voleybolchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yordam bera oladigan yangicha yondashuvlar, samarali vositalar va metodlarni ilmiy izlash zaruriyati yuzaga keldi.

Bir qator olimlar va mutaxassislar voleybolchilar tayyorlashning eng samarali vositasi harakatli o‘yinlar, estafetalar hisoblanadi degan xulosaga keladilar[6].

Harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, mohiyati va keng qamrovligi bilan bolalar xayotida katta qiziqish uyg‘otib kelgan. O‘yinlar bolalar voshi va jinsi hamda o‘yin o‘tkazish joyi va shart-sharoitiga qarab moslashtirilishi mumkin. O‘yinlarning avzalligi faqat shular bilan kifoyalanadi. Ular xayotiy zarur harakat malakalari, ko‘nikmalari, jismoniy sifatlar, ro‘zg‘or ishlari, kasbiy - xunar ko‘nikmalari va sport malakasini shakllantirish bilan bir katorida, zukkolik, rostgo‘ylik, insonparvarlik, hamkorlik, o‘zaro yordam hamda diqqat, xotira, xissiyot, tasavvur, tafakkur, nutq, talaffuz va boshqa shu kabi fazilatlarini charxlash kuchiga egadir.

Ko‘pchilik mutaxassis – olimlar tadqiqotlar bilan isbot qilinganki, aynan qayd etilgan xislatlar harakatli o‘yinlar davomida o‘ta samarali shakllanishi mumkin ekan[5].

O‘yinni to‘g‘ri tanlash va maqsadga muvofiq ravishda o‘tkazish juda muxim ahamiyatga ega. Ammo o‘yin hamma vaqt ham tarbiyaviy vazifalarni xal qilavermaydi. Tarbiya soxasida yaxshi natijaga erishish uchun harakatli o‘yinlar tarbiyaviy ruxda tashkil qilinishi va o‘tkazilishi kerak.

O‘yin raxbari bolalar jamoasini yaxshi bilishi, xar bir o‘yinning mazmuni va qoidalari bilan mukammal tanishishi, yuksak pedagogik maxoratga ega bo‘lishi lozim. Shundagina u harakatli o‘yinlardan ko‘zlangan ta‘limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishadi.

Bolalar o‘yin davomida o‘z fel-atvori va shaxsiy xususiyatlarini namoyish qiladilar. Bundan esa o‘qituvchi ularning turli odatlarini, salbiy va ijobiy qiliqlarini bilib olishi, tegishli tadbirlarni belgilashi, o‘yinni muayyan yo‘nalishga solib, ularda sofdillik, mardlik, o‘rtoqlik sifatlarini jamoadagi o‘z burchini xis qilishni tarbiyalashi mumkin. Shu bilan birga, u bolalarga o‘yin qoidalarni buzmagani xolda ijodiy tashabbus ko‘rsatishda xar jixatdan yordam beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga xar bir o‘yinning mazmuni, vazifasi va qoidalarni tushuntirib beradi. Bu esa ularga o‘yinga ongli munosabatda bo‘lish, uni to‘g‘ri o‘rganib olish, o‘z xatolari va yutuqlarini to‘g‘ri tushunish va o‘z harakatlarini o‘rtoqlarining harakatlariga qiyoslab taxlil qilish imkonini beradi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

O‘quvchining o‘yin yoki ayrim mashqlarni o‘rganishda o‘qituvchiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilaverishi ham maqsadga muvofiq emas. O‘qituvchi o‘rgatadigan va o‘quvchilar ongli ravishda bajaradigan harakatlar bolalarda tashkilotchilik ko‘nikmalarini tarbiyalashga yordam berishi kerak. Bunga o‘yinni o‘tkazish uchun o‘quvchilardan xakamlar va ularning yordamchilarini tayyorlash yo‘li bilan erishiladi. O‘qituvchi bolalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar biroz muayyan qiyinchiliklarni engish bilan bog‘liq bo‘lishiga, o‘yin jarayonida bajariladigan xar bir vazifa amalga oshishiga erishishi va to‘siqlar qanday zabt etilishiga ko‘ra murakkablashtirib borilishi zarur. Bu ish bolalarni mexnatsevarlikka o‘rgatadi, ulardagi iroda kuchini orttirib boradi.

O‘qituvchi o‘yinni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda uning aniq vazifalarini belgilab chiqadi, bu vazifalar bolalarning yoshiga mos, yani ular bajara oladigan bo‘lishi kerak.

O‘yinni tashkil qilish va o‘tkazishda o‘quvchilarni iloji boricha tashabbus ko‘rsatib, faol qatnashishga rag‘batlantirish juda muximdir.

Bolalar ijodiy faollik ko‘rsatib o‘ynasalar, o‘yinlar ularda tashkilotchilik malakasini o‘stiradi. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘rtog‘iga yordam berish, o‘z xolicha yoki o‘rtoqlari bilan darxol bir qarorga kelishi ijodiy tashabbuskorlik xisoblanadi. Agar bolalar o‘yinni ilgari o‘zlashtirgan bo‘lsalar, o‘yin paytida ularning faolligi yanada ortishi mumkin.

O‘yin paytida bolalarning faollik ko‘rsatishi o‘qituvchining ana shu o‘yinni o‘tkazishga qanday tayyorlanishiga ham bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchining o‘zi o‘yinni aniq va yaqqol tasavvur qilish, o‘yin paytida o‘ynovchilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshi tushunishi lozim.

O‘tkaziladigan harakatli o‘yinni obrazli qilib tushuntirish, eng muxim omillardan sanaladi. Bu ish ayniqsa, mazmunli o‘yinlarni so‘zlab berishda g‘oyat zarur bo‘lib, o‘yin qatnashchilari o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishlarida yordam beradi. O‘quvchilar o‘yin mazmunini puxta o‘zlashtirishlari uchun raxbar og‘zaki tushuntirishni amalda ko‘rsatish bilan, yani o‘yinining qoidalarini tushuntirishda, harakatlarni ifodalab berishda ko‘rsatmali qo‘llanmalardan foydalanishda uning aniq vazifalarini doimo nazarda tutishi zarur.

O‘yinlarni rejalashtirishda ularning mazmuni va o‘zaro bog‘liqligini ham unutmaslik, muayyan yoshdagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash vazifalariga muvofiqligini xisobga olish kerak. Masalan, yangi bilim va malakalar mavjud bilim va malakalarga bog‘lab berilishi lozim. Shuningdek, bunda qatnashuvchilarning o‘ssish va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos o‘yinlarni tanlash va o‘tkazish lozim. Xar bir o‘yinining o‘ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari bo‘ladi. Shuning uchun o‘yinni tanlashda undagi qiyinchiliklarni o‘quvchilar bir oz kuch sarflab eng olishlarini nazarda tutish kerak. To‘siq yoki qiyinchiliklarni engishiga, yani etarli darajada kuch sarflashga majbur qilmaydigan o‘yin bolalarda xech qanday qiziqish uyg‘otmaydi. Lekin kuch talab qiladigan o‘yin bolalarning qo‘lidan keladigan bo‘lishi ham kerak.

O‘qituvchi o‘yinlarni osondan qiyinga, oddiydan murakkabga qoidasi bo‘yicha belgilashi lozim. Tashkil qilinishi sodda va jamoalarga bo‘linmay yo‘naladigan o‘yinlar oddiy o‘yinlar xisoblanadi.

Jamoalarga bo‘linib yo‘naladigan o‘yinlar biroz murakkab o‘yinlarga kiradi. Bunday o‘yinlarning qoidalari qiyinroq ham bo‘ladi. O‘qituvchi tanish o‘yinlardan notanish o‘yinlarga o‘tishni ham nazarda tutishi kerak. Bu tadbir bolalarni o‘yinga qiziqtirishda yordam beradi. Yangi o‘rganiladigan o‘yinlardagi harakatlarning tanish o‘yinlardagi harakatlarga o‘xshashi va ularga xali bolalar uchun noma‘lum qoidalar va harakatlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, o‘quvchilar “Epchil bolalar” o‘yini biladilar, endi ularga “Ikki ayoz” o‘yini o‘rgatish mumkin va bu ish ancha oson bo‘ladi. Chunki mana shu ikkala o‘yinining qoidalari o‘xshash, faqat ikkinchi o‘yin murakkabroqdir.

Shu tariqa o‘rganiladigan o‘yinlar asta-sekin murakkablashib borsa, bolalarda yangi harakat ko‘nikmalari xosil bo‘lib boradi va oldingi o‘rganilgan harakatlar takomillashib boradi. O‘quvchilar harakat ko‘nikmalarini, shuningdek, oldingi olgan bilimlarini puxta o‘zlashtirishiga erishmoq uchun o‘yinlarni muntazam ravishda takrorlab borish lozim. Ammo bu bir xil o‘yinlarni takrorlayverish lozim, degan gap emas, balki mazmuni xar xil o‘yinlarning ma‘lum bir qismini takrorlab turish, o‘quvchilarning o‘yinlarini puxta o‘zlashtirishlariga erishish, ularning bilim va malakasini uzluksiz tekshirib borish, demakdir. Bu ish o‘yin qatnashchilarining kamchiliklarini va yo‘l qo‘ygan xatolarini aniqlashda, o‘z vaqtida tuzatishda yordam beradi.

Olib borilgan suhbatlardan, ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlilidan va o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, harakatli o‘yinlarni rejalashtirishda bolalarning pedagogik xususiyatlarini, o‘yinni o‘tkazish joyini, o‘yinlarning mazmuni va o‘zaro bog‘liqligini ham unutmaslik, muayyan yoshdagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash vazifalariga muvofiqligini xisobga olish kerakligi katta ahamiyatga ega ekanligi ayon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент, 2015. 5 сентябр.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни (2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2020. 24 январь, ПФ-5924- сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2022. 22 январь, ПФ-60-сон.
5. Ismoilov T.U., Ismoilov G'.T., Norqulov Sh.T. Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. – Namangan 2024. –162 b.
6. Usmanxodjayev T.S., Pulatov A.A., Tajibayev S.S., Pulatov F.A. Sport va harakatli o‘yinlar (milliy va harakatli o‘yinlar). – Toshkent. Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2018. – 328 b.